

OVOZ REJISSYORLIGI SOHASIDA YANGI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.049>

Orif Rashidovich Raximdjano

o_raximdjano@dsmi.uz

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada ovoz rejissyorligi sohasida joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalarning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari hamda amaliy jarayonga ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli audio texnologiyalar, DAW tizimlari, studiya uskunalari va sun'iy intellektga asoslangan yechimlarning ovoz sifati hamda ijodiy jarayondagi o'rnini ilmiy manbalar va mutaxassislar fikrlari asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: ovoz rejissyorligi, audio texnologiyalar, raqamli ovoz, DAW, sun'iy intellekt, studiya yozuvi

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF NEW TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF SOUND DIRECTION

Arif Rashidovich Rakhimdjano

o_rakhimdjano@dsmi.uz

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This scientific article analyzes the theoretical foundations, stages of development and impact of modern technologies introduced in the field of sound direction on the practical process. The role of digital audio technologies, DAW systems, studio equipment and artificial intelligence-based solutions in the sound quality and creative process is covered based on scientific sources and expert opinions.

Keywords: sound direction, audio technologies, digital sound, DAW, artificial intelligence, studio recording

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida media mahsulotlarga bo'lgan talab keskin ortib bormoqda. Ayniqsa, kino, televideniye, radio, musiqa industriyasi va internet platformalarida ovoz sifati muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ovoz rejissyorligi sohasida yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi san'at va texnika uyg'unligini yangi bosqichga olib chiqdi.

Zamonaviy ovoz rejissyorligi va audio muhandislik sohasida dunyoga mashhur Amerikalik audio mutaxassis D.Xuber bu borada shunday fikr bildiradi: "Zamonaviy ovoz rejissyori texnik bilimlarsiz ijodkor bo'la olmaydi, ijodkorliksiz esa texnik mutaxassis bo'lib qoladi". D.Huber professional audio yozuv, studiya texnologiyalari va ovoz ishlab chiqarish metodologiyasi bo'yicha fundamental izlanishlar olib borgan, ko'p yillar davomida audio muhandislik bo'yicha ta'lim bergan va ovoz rejissyorlari tayyorlashda nazariy bilim bilan amaliy tajribani uyg'unlashtirishga erishgan. Uning yuqoridagi fikri ovoz rejissyorligi bugungi kunda murakkab va ko'p qirrali kasb ekanini ko'rsatadi. Ovoz rejissyorligi - bu ovozni yozib olish, qayta ishlash, montaj qilish va yakuniy audio mahsulotni yaratishga qaratilgan ijodiy-texnik faoliyatdir.

Ushbu soha akustika, elektrotexnika, informatika va musiqa san'ati bilan uzviy bog'liq bo'lib, F.Rumsey ovoz rejissyorligi mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Ovoz rejissyorligi - bu texnologiya yordamida badiiy g'oyani eshitiladigan shaklga keltirish san'atidir". Bundan xulosa qilish lozimki, ovoz rejissyori nafaqat texnik jarayonni boshqaradi, balki asarning estetik qiyofasini ham belgilaydi.

Ovoz yozish texnologiyalarining tarixiy rivojiga nazar tashlanganida uning bir necha bosqichlardan o'tganligi kuzatiladi. Bular: mexanik yozuv (fonograf, grammofon), analog magnit yozuv, raqamli yozuv tizimlari, kompyuterlashtirilgan audio ishlab chiqarish. Mazkur bosqichli rivojlanish xarakterli xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi va ovoz rejissyorligining dinamik o'sish yo'lini ko'rsatadi.

Analog davrda ovoz sifatiga texnik cheklovlar mavjud bo'lgan bo'lsa, raqamli texnologiyalar bu muammolarni sezilarli darajada bartaraf etdi. B.Katz ta'kidlaganidek: "Raqamli texnologiyalar ovoz bilan ishlashda aniqlik va nazorat darajasini misli ko'rilmagan bosqichga olib chiqdi".

Hozirgi kunda ovoz rejissyorligi faoliyatining asosiy qismi DAW (Digital Audio Workstation) dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu dasturlar ovozni yozish, tahrirlash, miks va mastering qilish imkonini beradi.

DAW tizimlarining bir necha afzalliklari bo'lib, ular quyidagilardir: ko'p yo'lli yozuv va montaj, virtual asboblardan va effektlardan, avtomatlashtirish imkoniyati, mobil va uy studiyalarini yaratish. Audio muhandis M.Senior bu haqda shunday yozadi: "DAW texnologiyalari ovoz rejissyorining studiyadagi imkoniyatlarini cheksiz darajada kengaytirdi".

Yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan studiya jihozlari ovoz sifati va yozuv aniqligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy studiyalar: yuqori sezgirlikka ega mikrofonlar, raqamli audio interfeyslar, akustik optimallashtirilgan muhit, professional monitoring tizimlari bilan jihozlanadi. Tadqiqotchi A.Ibragimov yozganidek, "Texnik baza qanchalik mukammal bo'lsa, ovoz rejissyorining ijodiy qarorlari shunchalik erkin bo'ladi".

Mazkur ijodiy jarayonda ovozga ishlov berish va effektlar texnologiyasining ham ahamiyati beqiyos. Ovoz rejissyorligida ovozni qayta ishlash jarayoni badiiy ifodaning muhim qismi hisoblanadi. Ekvalayzer, kompressor, reverberatsiya kabi effektlar ovozning tembr, dinamika va fazoviylik xususiyatlarini boyitadi. R.Runstein bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: "Effektlar ovozni sun'iy bezash emas, balki uning tabiiy xususiyatlarini ochib berish vositasidir".

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ovoz rejissyoriga yangi badiiy tajribalar o'tkazish imkonini bermoqda. Masofaviy yozuvlar, virtual studiyalar va eksperimental ovoz dizayni buning yaqqol misolidir. Natijada ovoz rejissyorligi faqat texnik jarayon emas, balki mustaqil ijodiy faoliyat sifatida shakllanmoqda. Shunday ekan, endilikda sohani malakali mutaxassislar bilan ta'minlash muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Hozirgi kunda ovoz rejissyorligi ta'limini yanada chuqurlashtirish davr talabiga aylangan. Bo'lajak mutaxassislarning zamonaviy texnologiyalarni tadqiq etish va yangilarini yaratish yuzasidan bilimlarini kengaytirish muhim masalalardan biridir. Bugungi kunda ovoz rejissyorlarini tayyorlashda raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi.

Onlayn platformalar, simulyatorlar va virtual studiyalar talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshiradi. Pedagogik tadqiqotlarda qayd etilishicha: "Zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilgan ta'lim mutaxassisning bozor talablariga moslashuvchanligini oshiradi".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ovoz rejissyorligi sohasida yangi texnologiyalarning joriy etilishi audio mahsulotlar sifatini oshirish, ijodiy jarayonni erkinlashtirish va professional faoliyat samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Raqamli tizimlar, sun'iy intellekt va zamonaviy studiya uskunalari ovoz rejissyorligini yangi ilmiy-texnik bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayonni chuqur o'rganish va ta'lim tizimiga joriy etish sohaning kelajakdagi rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, oldimizda turgan asosiy vazifa - sohada ta'lim sifatini ko'tarish, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda jahon andozalari asosida yondoshuvdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rumsey F., McCormick T. Sound and Recording.
2. Huber D., Runstein R. Modern Recording Techniques.
3. Katz B. Mastering Audio.
4. Senior M. Mixing Secrets.
5. Ibragimov A. Ovoz rejissyorligi asoslari.